

## **Toshkent arxitektura-qurilish universiteti kengashining 2-sonli yig‘ilishi 2023-yil 31-oktyabr kuni o‘tkazildi va unda quyidagi masalalar muhokama etildi:**

1. Toshkent arxitektura-qurilish universitetida ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to‘g‘risida nizom, ilmiy darajalar berish tartibi hamda ilmiy unvonlar berish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “Faxriy doktori” unvonini berish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-oktyabrdagi 2/12-4/4-8029-sonli xati ijrosini ta’minlash to‘g‘risida.
4. Toshkent arxitektura-qurilish universitetida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi, erkin izlanuvchi (professor-o‘qituvchi, xodim)larning ilmiy rahbarlarini va doktorlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash to‘g‘risida.
5. “Scopus”, “Web of Science”, “ScienceDirect” va boshqa nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasida indekslanuvchi ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etgan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda xodimlarni moliyaviy jihatdan rag‘batlantirib borish choralarini ko‘rish to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 5-iyunda ro‘yxat raqami 1963-sun bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2009-yil 22-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 160-sonli buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida.
7. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni Toshkent arxitektura-qurilish universitetining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilingan talabalarning diplomlarida qayd etilgan fanlarining kreditlari farqini topshirish to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-416-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida.
9. 2023-2024 o‘quv yili uchun “O‘zbekgidroenergo” aktsiyadorlik jamiyatining nomdor stipendiyalarini tayinlash to‘g‘risida.